Keyingi qatorda ovoz tembrining ortib borishi va bu ovoz ko'tarilishiga nisbatan salbiy munosabat ham yaqqollashishini ko'rsatadi. Gapirmoq fe'li bilan boshlangan qatorda neytral so'z salbiy munosabatni ko'rsatadigan so'zlar bilan davom etadi va shu bilan birga aytilayotgan gapning qiymatsiz, ahamiyatga arzimas ekanligiga ham ishora qiladi. Tabassum qilmoq ijobiy bo'yoqdorlik bilan daraja qatorini boshlab bergan. Kulmoq esa uslubiy jihatdan neytral vosita, qator yaqqol salbiy munosabatga sabab bo'ladigan fe'l bilan yakunlanadi. Birinchi misolda neytral semali so'z birdan salbiy so'zga o'tib ketdi. Oxirgi misolda esa ijobiy sema avval neytral, so'ng salbiy semaga yo'naladi. Bunday tartibni bo'yoqdorlik asosida qurilgan daraja qatorining asosiy tamoyili deb aytish mumkin. Xulq-atvor fe'llari jadallik semasining ortib borishiga qarab ham graduonimik munosabatga kirishadi.

turtmoq → urmoq → do'pposlamoq // to push → to beat → to ram

titramoq → qaltiramoq → tebranmoq // to tremble → to shake → to sway

urishmoq → haqoratlamoq → so'kmoq // to argue → to humiliate → to scold

Birinchi qatorda fiziologik ta'sir xulq-atvorini ifodalaydigan fe'llar jamlangan. Turtmoq fe'li yengil xatti-harakat, qisqa muddat davom etadigan jarayonni ifodalaydi. Urmoq esa jarayondagi kuch ishlatish ko'payganini, do'pposlamoq urish xatti-harakatining bir necha bor takrorlanganini anglatadi. Titroq qo'rquv natijasida yuzaga kelgan fiziologik atvorning bilinar-bilinmasligini ifodalagani holda, qaltiramoq harakat yaqqol ko'zga tashlanadigan darajada ekaniga ishora qiladi. Tebranmoq intensivligi eng yuqori darajadagi xulq-atvorning tashqi alomati sifatida daraja qatorini yakunlaydi. Oxirgi qatorda urishmoq ma'nosi yengil koyish yoki tanqidni bildiradi, intensivligi yuqori bo'lgan haqoratlamoq esa insonning shaxsiyatiga o'tish, qattiq tanbeh berishni bildiradi. So'kinmoq esa o'zining salbiy konnotatsiyasi bilan konflikning yanada kuchayganiga ishora qiladi.

O'zbek tilida xulq-atvor fe'llariga ijobiy yoki salbiy semani tarz ma'nosini ifodalashga xizmat qiluvchi ko'makchilar ham yuklashi mumkin. Ma'lumki, o'zbek tilida asosiy felga ravishdosh shakli vositasida bog'lanuvchi olmoq, qo'ymoq, yurmoq, yubormoq, bilmoq, bo'lmoq, ko'rmoq kabi ko'makchi fe'llar turli tarz ma'nolarini qo'shadi. Tarz ma'nolari esa boshlanish, tugallanish va jarayonlilikdan tashqari yana ko'plab qo'shimcha semalar demakdir. Masalan, kutilmaganlik, takroriylik, sinash, jadallik, noto'liqlik kabi tarz ma'nolari xulq-atvor hamda ko'makchi fe'llar birikuvidan ham hosil bo'ladi – buni leksemalarning kontekstual polisemiya imkoniyati deb baholash joiz.

gapirib yubormoq – kutilmagan, salbiy xatti-harakat

turtib ko'rmoq – neytral bo'yoqdorlik kasb etgan, sinash tarz ma'nosiga ega xulq-atvor fe'li

so'kib bermoq – tugallangan salbiy xulq-atvor belgisi, salbiy munosabat shakli

maqtab yurmoq – davomiy ijobiy munosabat

kulib qo'ymoq – kutilmagan, oniy xulq-atvor belgisi

Ingliz tilida ko'makchi fe'l vazifasi predloglarga yuklanadi. Predlog va fe'l birikuvi fe'lning lug'aviy semasini butunlay o'zgartirib yuborishi yoki lug'aviy ma'noga ta'sir qilmagan holda konnotativ sema qo'shishi mumkin. Masalan, to speak out – gapirib olmoq, kutilganlik, to'liqlilik semasiga ega. Shuningdek, oshkora ochiq gapirib olish ingliz tilida ijobiy xulq-atvor namunasi deb baholanadi. To let down – pand berib qo'ymoq fe'lida predlog xatti-harakatning tugallangan tarzini bildiradi, fe'l lug'aviy ma'nosiga ko'ra salbiy bo'yoqdorlikka ega munosabat shaklini anglatadi. To rush into – shoshilib kirmoq. Bunda predlog harakatning yo'nalish semasini namoyon qiladi. Harakatning oniyligi, kutilmaganligi, tugallanganligi esa to rush lug'aviy semasi tarkibiy qismlaridir.

Demak, xulq-atvor fe'llarida aksariyat asosiy semantik xususiyatlar sirasida ijobiy yoki salbiy bo'yoqdorlik, lug'aviy, ifodaviy polisemiyani sanab o'tish mumkin. Guruhdagi so'zlar o'z tarkibidagi xususiy ma'no turi, tarz semalariga ko'ra ma'nodoshlik, ziddiyat va graduonimik munosabatlarga kirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Степанов Ю. Семиотика – М.: Радуга, 1983 – 640с; Абаев В. Понятие идеосемантики // Избранные труды. 2. Общее и сравнительное языкознание. Владикавказ, 1995.

2. Исаченко О. Функционально-семантический класс глаголов поведения (системно-семантический, функциональный и лингвокультурологический аспекты): Дисс. … канд. филол. наук. Новосибирск, 2000. — 208 с.

3. Жданова О. Стилистическая и интеллектуальная оценочность глаголов поведения // Лексико-семантические группы современного русского языка. Новосибирск, 1985. — С. 48-55.

4. Жумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик хамда стилистик градуонимия. Фил.фан.док.дисс. – Тошкент. 2016.

5. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Фил.фан.док.дисс. – Тошкент. 1997.

6. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия. Фил. фан. ном. дисс. – Тошкент. 1996.)

7. Ortiqova G. Harakat tarzi shakllarining uslubiy imkoniyatlari. – Berlin: Globe Edit, 2022. 108-b.

8. Elchayev Z. Xulq-atvor fe'llarining so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni. Tamaddun nuri. Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 53-62 betlar, 2023-yil.

Marxobo ERKINOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi
erkinovamarhabo1@gmail.com

O'ZBEK AYOLLARI NUTQIDA BAHO BILDIRUVCHI BIRLIKLAR

Annotatsiya: maqolada o'zbek ayollari nutqiga xos baho munosabatli birliklarning gender xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Ayollar nutqining gender xususiyatini namoyon qilishda faol qo'llaniladigan baho munosabatli birliklar: leksik, grammatik birliklar, undov so'zlar, olqish va qarg'ish so'zlarning o'ziga xos tomonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *baho munosabati, gender xususiyati, ayollar nutqi, olqish, qarg'ish, ijobiy baho, salbiy baho, assotsiativ birlik, nutqiy odat.*

Аннотация: в статье рассматриваются гендерные характеристики единиц оценки, характерные для речи узбекских женщин. Рассмотрены оценочные единицы, активно используемые при проявлении гендерных особенностей женской речи: лексические, грамматические единицы, восклицания, аплодисменты и ругательные сдова.

Ключевые слова: *оценочная установка, гендерная характеристика, женская речь, аплодисменты, ругательства, положительная оценка, отрицательная оценка, ассоциативная единица, речевая привычка.*

Annotation: the article discusses the gender characteristics of units of evaluation, specific to the speech of Uzbek women. Evaluation-related units actively used in the manifestation of gender characteristics of women's speech: lexical, grammatical units, exclamations, applause and cursing words are considered.

Keywords: *evaluation approach, gender feature, women's speech, applause, damnation, positive evaluation, negative evaluation, associative unit, speech habit.*

Til kishilik jamiyati uchun aloqa vositasi vazifasini bajaruvchi asosiy quroldir. Har bir til doim shu til egalarining hayotidagi barcha voqeliklarni aks ettiradi, mavjud shart-sharoitlar, davr bilan o'sib rivojlanadi. Shuning uchun bugungi kunda tilning rivojlanishiga, sof saqlanishiga, sayqallanishiga e'tibor yanada ortmoqda. U borliq haqidagi bilimlarni ifodalash vositasigina emas, balki tinglovchiga ta'sir etuvchi vosita hamdir. Shuning uchun til faqat kommunikativ vazifanigina emas, ekspressiv-emotsional vazifani ham bajaradi. Voqelikka munosabat bildirish belgisi baho atamasi nomi ostida yuritiladi. O'zbek tilida yangi yo'nalish sifatida yuzaga kelgan baho kategoriyasi, o'zbek tilida baho bildiruvchi leksik assotsiatsiyalarining hosil bo'lish mexanizmlari, baho bildiruvchi assotsiativ maydoni, verbal assotsiatsiyalarning til egalarining gender belgisi, ijtimoiylik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiqi masalasi haqida turli mulohazalar yuzaga kelmoqda. O'zbek tilshunosligida Sh.Iskandarova, A.Sobirov, B.Qurbonova, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, N.Hoshimovalar tomonidan assotsiativ tilshunoslik nazariyasi, assotsiativ tajriba metodi, assotsiativ maydon, verbal assotsiatsiyalarning vujudga kelish omillari xususida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O'zbek tilida bu sohaning kirib kelishi f.f.d., prof.D.E.Lutfullayeva nomlari bilan bog'liq. Assotsiativ birliklarning gender xoslanishi borasida G.E.Yuryevna, T.G.Borgoyakova, G.E Kuznetsova kabilar rus va xakas tillari misolida ish olib borganlar. Biroq o'zbek tili materiallari asosida individual assotsiatsiyalarning gender xoslanishi mavzuyida tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tilshunos olim V.I.Banaru bahoga quyidagicha ta'rif bergan: baho-aksiologik atama bo'lib, natijali aspektni ifodalovchi baho subyekti va uning predmeti o'rtasida o'zaro munosabat o'rnatuvchi jarayon. Zero, baho predmeti qatoriga nafaqat subyekt uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar, balki nol darajali va salbiy qadriyatlar ham aloqador bo'lib, bu tushunchaning umumiy nisbiyligini isbotlaydi. Leksemaning mazmun jihatidan, voqelikni nomlashdan tashqari nomlanayotgan voqelikka munosabat ham bildiriladi. Baho munosabati turli aspektlarga ega bo'lib, inson faoliyatining alohida bir sohasi bilan bog'langan holda aniqlanadigan aloqalar, bog'lanishlar tushuniladi. Munosabatlar deganda bir butunlikning tarkibiy qismlari – birliklari orasidagi o'zaro aloqalar, bog'lanishlar anglashiladi.

Leksemaning mazmun jihatida asosiy hodisa – leksik ma'no; baho semasi, asosan, uch xil ifodalanadi: 1) morfema yordamida; 2) leksemaning o'zi bilan; 3) kontekst yordamida. Baho semasining morfema yordamida ifodalanishi morfologik ifodalanish deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida bunday vazifani erkalash, kichraytirish ma'nolarini anglatuvchi -cha,-gina, -jon, -choq, -chak kabi qo'shimchalar bajaradi. Bu morfemalar ijobiy munosabat ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: Bo'rixon do'mboqqina bola bo'lgan edi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi.

Baho munosabati shaxsning ijtimoiy holatidan, jinsi, yoshi, millati, dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ti

egalarining nutqida aks etadi. Baho munosabatining ijobiy yoki salbiy tarzda qo'llanishi, ayollar va erkaklar nutqida baho munosabatli birliklarning gender xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Gender ko'p qirrali tarmoq bo'lgani uchun nafaqat faylasuf va sotsiologlarning, balki tilshunoslarning ham e'tiborini tortgan. Tilshunoslikda gender elementlariga e'tibor doim ham mavjud bo'lgan. Erkak va ayol nutqining muayyan farqlarga ega ekanligi ko'rinib turishi dunyoning barcha tillari uchun xosdir. Ayrim tillarda bu omil ochiq namoyon bo'lsa, boshqa tillarda uning lingvistik asoslarini ko'rsatib berish oson emas [3, 87].

1960-yillar o'rtalariga kelib tilshunoslikda gender masalasiga bo'lgan qiziqish uch yo'nalishdagi ikki jihatga: muayyan tilda erkaklar va ayollarning nutqining tafovutlari hamda muayyan til tizimida erkaklik, ayollik belgilari bilan bog'liq tushunchlarni ifodalovchi til birliklari tadqiqotlarda o'z aksini topdi:

1) Erkak-ayol nutqining ijtimoiy tabiati;
2) nutqiy muloqotning o'ziga xos xususiyatlari;
3) tafovutlarning kognitiv aspekti [2, 83].

Ayollarning nutqida so'zlarning ko'chma ma'nolaridan foydalanishi, maqol va iboralarni qo'shib gapirishi, emotsiyaga berilishi kuzatiladi. Gapirayotganda ham ohanglarning o'zgarib borishi kuzatiladi.

O'zbek nutqiy odatlarining tadqiqotchisi prof. Sh. Iskandarova o'zbek nutqiy odatlarining gender xususiyatlariga alohida to'xtalib, ayollar o'rtasidagi muloqot jarayonida qo'llanishi odat tusiga kirgan ayrim so'z va iboralarni quyidagicha qayd qiladi: "dugonajon, ovsinjon, egachi, aylanay, o'rgilay, girgitton, qoqindiq, asalim, shirinim, toychog'im va boshqalar". Bular barcha ayollar uchun umumiy til birliklari – ayol, buvi, ona, turmush o'rtog'i, dugona, farzand, opa, singil, amma, xola va boshqa notanish kishi bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda ularning har birining boshqa bir ayol bilan muloqot odati yana o'ziga xos tarzda shakllangan bo'ladi"[1, 26].

Aylanay, o'rgilay, girgitton, qoqindiq, tasadduq kabi leksik vositalarida o'zbek ayollar nutqining gender xususiyati namoyon bo'ladi va bu so'zlar ijobiy baho munosabatini ifodalaydi.

– Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zimga uyqu keladimi? (G'.G'ulom)

Voy, o'g'limdan aylanay! (O'.Umarbekov)

– Voy, tasaddug'-ey, ey, voy, tasaddug'-ey! Ho'-o'p bolalarimiz bor-da, tasadduq! – dedi A'lobush. (O'. Umarbekov)

Ushbu parchadagi "aylanay", "tasadduq" so'zlari orqali o'zbek ayollarining ijobiy baho munosabatining gender xususiyati namoyon bo'lgan.

Ayollar nutqida erkalash-kichraytirish -choq, -gina, -jon qo'shimchalariga egalik qo'shimchalarini qo'shib murojaat qilish faol qo'llaniladi. Bu so'zlovchining murojaat qilgan shaxsga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi. O'zbek ayollari farzandlarini toychog'im, qo'zichog'im, bolajonim, qizginam deya erkalaydi. Takibidagi erkalash-kichraytirish qo'shimchalari erkalash va kichraytirishdan tashqari ijobiy munosabatni ham ifoda etadi.

– Voy, bolaginam-a! Pul yuborib nima qilarkan! (O'. Umarbekov)

Parchadagi "bolaginam" so'zi -gina lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchaga egalik qo'shimchasi qo'shilib, ayollar nutqining gender xususiyati erkalash ijobiy baho munosabatini hosil qilgan. Ijobiy baho munosabati aks etgan. Parchadagi voy undov so'zi ham ayollarning individual xususiyatini ifodalaydi. Voy undov so'zi o'ndan ortiq ma'no noziklikiarini ifodalaydi. Bularga sevinish, erkalash, achinish, qo'rqish, havas, sarosimalanish, koyish, alam singari holatlar kiradi. Parchada sevinish ijobiy baho munosabati namoyon bo'lgan.

Ayollar nutqiga xos bo'lgan shunday birliklar ham borki, ular salbiy munosabatni ifodalaydigan qarg'ishlar, ijobiy istakni bildiradigan birikmalardir. Uying kuygur, o'lgur, juvarmag, qirg'in kelgir kabi qarg'ishlar ayollar nutqida ishlatilib, salbiy baho munosabatini ifodalaydi. Asosan, qarg'ishlar so'zlarga ayollar nutqida ko'proq duch kelamiz. -gur affiksli ijobiy istak birliklari, shuningdek, ayollar nutqida ham faol qo'llanadi. Odatda, qarg'ishni ifodalovchi -gur affiksli birliklarni bo'lishsiz shaklida ham qo'llash ayollar nutqi uchun xos bo'lib, bunda ijobiy istak bildiradi: basharang qurmagur, qurib ketmagur kabi. Bu xil qurilmalarda salbiy istak ma'nosi kuchsizlanib, neytral holdagi istak mazmuni ifodalanadi: Ey, qurib ketmagur, nega indamading shu vaqtgacha? Basharang qurmasin, tezroq keta qolmaysanmi! (O'.Hoshimov)

Bunday birliklarga yana bo'yning uzulmagur, tinmagur, o'lmagur so'z va so'z birikmalarini ham misol sifatida keltirish mumkin. Ayollar nutqida ijobiy istak ifodalovchi nutqiy birliklar rang-barang bo'lib, ular -(a)y, -sin kabi mayl shakllarida ham beriladi. Aylanay, bo'yingga qoqiy, sadag'ang ketay, onaginang aylansin, onang qoqindiq, bo'yingdan o'rgulay kabi birliklar ham, asosan, ayollar nutqida ishlatiladi: – Xush kelibsiz, – dedi Oftob oyim... – Xushvaqt bo'linglar, aylanay, qix... – dedi xotin. (A.Qodiriy) Voy bo'yingga qoqiy. Voy sadag'ang ketay!

Xullas, o'zbek ayollari nutqiga xos baho bildiruvchi shunday birliklar mavjudki, ular ayollar va erkaklar nutqidagi gender tafovutni namoyon qiladi. Ishimizda yuqoridagi keltirilgan grammatik, morfologik, leksik vositalar, qarg'ishlar va olqishlar ayollar nutqining o'ziga xususiyatlarini namoyon etgan va qarama-qarshi jins vakillari nutqidan farqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fanlari nomzodi diss...avtoref. – Samarqand, 1993.
2.Маслова В. А. Лингвокультурология. – М., 2001. –С.83.
3. Pirmatova M. Undovlar va gender differensiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. № 3 – Toshkent. 2013. 87-bet.
4. Qambarov G'. Baho lisoniy va mantiqiy kategoriya sifatida. O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – Andijon, 1995.
5. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T.: Fan, 1980.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019.

Nigina AXMEDOVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi
e-mail: akhmedovanigina0@gmail.com

INGLIZ TILINING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARI VA ULARNING GRAMMATIK JIHATDAN GAPDAGI O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilida frazeologik birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflashi, tarjimada frazeologizmlarining lug'aviy ma'noviy xususiyatlarini ajratish hamda ularning grammatik jihatdan gapdagi o'rni xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, denotativ ma'no, frazeografiya, semantika, idioma, sinonimlik xususiyat.*

Annotation: this article describes the unique features of phraseological units in English, separates the lexical-meaningful features of phraseological units in translation, and their grammatical place in the sentence.

Key words: *phraseological unity, denotative meaning, phraseography, semantics, idiom, synonymy feature.*

Аннотация: в данной статье описаны уникальные особенности фразеологизмов английского языка, выделены лексико-значительные особенности фразеологизмов при переводе и их грамматическое место в предложении.

Ключевые слова: *фразеологическое единство, денотативное значение, фразеография, семантика, фразеологизм, признак синонимии.*

Har bir til xodisasi garammatik xususiyatga ega bo'lgani kabi frazeologizmlar ham grammatik ma'no kasb etadi va bunday birliklar gapda ega bo'lishi, to'ldiruvchi, aniqlovchi, antonim va sinonimlik xususiyatlariga egadir. Misol tariqasida quyidagi iborani lingivistik jihatdan tahlil qilamiz: "To be red" iborasi gapda ega bo'lib kelishi mumkin: "Being red was his opportunity", aniqlovchi bo'lib keladi; "he was red in this bank", antonimi mavjud: "to be black" shu kabi grammatik xususiyatlarga xosdir. Frazeologizmlar og'zaki tilda ham, badiiy adabiyotda ham keng tarqalgan. O'quv jarayonida men badiiy matnlarni tez-tez uchrataman. Frazeogogik birlik – tarkibi va tuzilishida barqaror, alohida leksik birlik vazifasini bajaradigan leksik jihatdan bo'linmaydigan va qiymatli so'z birikmasidir. [5,344] Frazeologizm bir butun bo'lib, so'zlarning tayyor kombinatsiyasi sifatida ishlatiladi, keyingi parchalanishga olib kelmaydi va odatda uning qismlarini qayta joyiga qo'yishga imkon bermaydi. Mustaqil lingvistik fan sifatida frazeologiya nisbatan yaqinda paydo bo'ldi. Tilshunoslik fani sifatida frazeologiyaning vazifasi muayyan tilning frazeologik asoslarini har tomonlama o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu fanni o'rganishning muhim jihatlari quyidagilardir:

- frazeologik birliklarning barqarorligi,
- frazeologik birliklarning va frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, ularning kelib chiqishi va asosiy funksiyalari. [3,38]

Frazeologik birliklarning tildan tilga tarjima qilinishi frazeologiyaning juda qiyin sohasi bo'lib, bu fanni o'rganishda katta tajriba talab etiladi. Frazeologiya frazeologik birliklarni aniqlash prinsiplarini, ularni o'rganish usullarini, tasniflash va frazeografiyani – lug'atlardagi tavsiflarni ishlab chiqadi. Frazeologiya turli xil tadqiqot usullaridan foydalanadi, masalan komponentlarning qiymatini tahlil qilish. Frazeologiya frazeologik birliklarning xususiyatlari va ularni o'rganish usullariga qarab tilning frazeologik tarkibini har xil tasniflashni taklif etadi. Frazeologik birliklar tilning ajralmas va ayniqsa ajralib turadigan tarkibiy qismi bo'lib, eng yorqin, o'ziga xos, g'ayrioddiy, "individual", madaniy ahamiyatga ega va milliy o'ziga xos bo'lib, nafaqat ma'lum tilning xususiyatlarini, balki uning nutqchilarini, munosabati, tafakkuri, mentaliteti, milliy xususiyatlarini ham ifoda etishga qodir va fikrlash uslubidir. [4,183] Frazeologik birliklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, har birining ma'nosi unga kiritilgan so'zlarning ma'nolariga qo'shilmaydi. Ko'pincha frazeologik birliklar o'zlarining tarkibiga qo'shimcha so'zlarni kiritmaydilar, ulardagi tarkibiy qismlarni qayta tartiblab bo'lmaydi. Frazeologiya tadqiqotchilari e'tiborni milliy o'ziga xoslikka qaratdilar. Shuning uchun frazeologik birliklar yunoncha "o'ziga